


82.3
A-54

Jahon xalqlari durdonalari

ALPOMISH BOTIR



ALPOMISH BOTIR



G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa jodiy uyi
Toshkent—2009

82.3 (5 Ў)
A 54

Ahmadjon Meliboyev
tarjimasi

Alpomish botir. Sibir xalq ertaklari. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. — 52 b.

Aziz bolajonlar!

Qo'lingizdagи ushbu kitobga Sibir xalq ertaklaridan namunalar kiritildi. Undagi qahramonlar sizlarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

ББК 82.3 (5У)
82.3 (5 Роч)

I 4702620205-82 — 2009
M352 (04)-2009

ISBN 978-9943-03-088-6

© Ahmadjon Meliboyev,
G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2009-y.

O'ROL BOTIR

Qadim zamonda, hali O'roltog' ham, Oqdaryo ham paydo bo'limgan bir paytda qalin changalzor ichida chol bilan kampir yashagan ekan. Ular uzoq umr ko'rishibdi. Vaqt-soati yetib kampir olamdan o'tibdi. Chol bo'lsa voyaga yetmagan Shulgen va O'rol ismli bolalari bilan qolibdi.

Otalari ov qilgani ketganida, bolalar uyda yolg'iz qolishar ekan. Chol shunaqangi kuchli ekanki, ayiq, bo'ri yoki arslonni tiriklayin ushlab uyga olib kelishi hech gap emas ekan. Buncha kuchni qaydan olarkin-a, deb o'ylishingiz mumkin. Chol ovga chiqishi oldidan birorta yirtqich hayvonning issiq qonidan bir qoshiq ichib yuborar ekan-da. Ana undan keyin kuchi o'sha yirtqichlarnikidan ham oshib ketar ekan.

Ovchilarning odatiga ko'ra, bunday qonni yirtqich hayvonni bo'm-bo'sh qo'li bilan ushlay olishga qodir kishigina ichishi mumkin ekan. Shuning uchun ham ota o'g'llariga: «Sizlar hali yoshsizlar, menga o'xshab yana meshdagi qondan ichib yurmanglar, yomon bo'ladi», deb tez-tez tayinlab turar ekan.

Kunlarning birida ota ov qilib yurganida Shulgen bilan O'rolning oldiga juda ham chiroyli notanish bir ayol kelibdi.

— Otalaringizga qo'shib ov qilmasdan nega uyda o'tiribsizlar? — so'rabdi u bolalardan.

Shulgen bilan O'rol javob qaytarishibdi:

— Ov qilishni istaymiz, ammo otamiz ruxsat bermaydilar. Hali yoshsizlar, deb uyda qoldirib ketadilar.

Notanish ayol kulib yuboribdi.

— Yosh ekanmiz, — deb o'tiraverasizlarmi? Unda qachon ulg'ayasizlar?

— Nima qilishimiz kerak? — so'rashibdi bolalar.

— Meshdagi qondan ichinglar, — debdi ayol. — Bir qoshiq qon tomoqlaringdan o'tishi bilanoq pahlavon yigitlarga aylanasizlar, arslonday kuchli bo'lib ketasizlar.

— Otamiz meshning yoniga yaqinlashmanglar, deganlar, — debdi Shulgen bilan O'rol. — Qondan ichib qo'ysalaring o'zlaringga yomon bo'ladi, deb tayinlaganlar. Biz otamizning so'zidan chiqmaymiz.

Notanish ayol bo'lsa bolalarni battar qistay boshlabdi:

— Eh, bolakaylar-ey, otangiz nima desa ishonib o'tirganingizga hayronman. Qondan bir ho'plam-bir no'plamdan ichinglar. Shu zahotiyoq pahlavon botir bo'lib ketasizlar. Sizlar ov qilasiz, otangiz bo'lsa uyni qo'riqlab turadi. Otangiz mug'ombir, yoshi bir joyga

borib qolgan bo'lsa-da, qondan simirib, sherdai bo'lib ov qilib yuribdi. Sizlarni bo'lsa meshning oldiga ham yaqinlashtirmaydi. Mayli, zorim bor-u zo'rim yo'q, ixtiyor o'zlariningizda. Sizlarga rahmim kelib aytdim-qo'ydim-da.

Ayol shunday debdi-da, so'zlarini tugatib, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Shulgen uning so'zlariga ishonib meshning oldiga yaqinlashibdi. O'rol bo'lsa otasining so'zlarini eslab turgan joyida qimirlamay turaveribdi.

Shulgen qondan bir ho'plagan ekan hamki ayiqqa aylanib qolibdi. Shu zahoti notanish ayol paydo bo'lib qah-qah uribdi. O'rolga qarab:

— Akang nima qilganini ko'rdingmi? Men hozir uni bo'riga aylantiraman.

Ayol shunday deb ayiqning yuziga shapatilagan ekan u bo'riga aylanibdi. Yana shapatilagan ekan — arslon tusini olibdi. Ayol bir hamla bilan arslonni minib allaqayoqqa gumdon bo'libdi.

Bolalarni avragan ayol — aslida ayol emas, ilon ekan. Xohlasa ayol, xohlasa erkak kishi tusiga kirib odamlarga ziyon-zahmat yetkazadigan bir maxluq ekan. Uning domiga ilingan Shulgen bir umr yirtqich hayvonga aylanib qolibdi. Bir qarasang ayiqqa o'xsharmish, birozdan keyin bo'riga va arslonga aylanarmish. Bechora chakalakzorlarda daydib, yurib-yurib oxiri bir ko'lning oldidan chiqib qolibdi. Aytish-laricha, Shulgen shu ko'lga cho'kib ketgan ekan.

Shulgenning ukasi O'rol voyaga yetib, tengi yo'q pahlavon bo'libdi.

O'rol polvon otasi kabi ovga chiqa boshlagan kezлari yurt boshiga ajal kelibdi. Ko'l va daryolar qurib bitibdi, o't-o'lanlar, daraxtlarning barglari qovjirab qolibdi. Havo yetishmay, nafas olish qiyinlashibdi. Odamlar qirilib, hayvon zotiga o'lat kelibdi. Ajal butun dunyoni o'z iskanjasiga olibdi, hech kim unga qarshi biror nima qilishni bilmabdi.

Naql qilishlaricha, O'rol botir ajalni qanday qilib topish va gumdon qilish yo'llarini axtara boshlabdi. Otasining olmosdan qilingan, otasidan meros qolgan qilichi bor ekan. Har hamla qilganida chaqmoqdek charaqlab ketar ekan.

Keksa ovchi qilichni o'g'liga berib shunday debdi:

— Bu qilich bilan ajaldan boshqa hamma narsani yengish mumkin. Aytishlaricha, bu yerlardan juda olisda Terexiu suvi bor. Uning har bir tomchisi o'lganni tiriltiradi, bemorni sog'aytiradi. Ajalni yengish uchun uni shu suvda pishish kerak. Undan qutulishning boshqa iloji yo'q.

O'rol otasining qilichini beliga taqib yo'lga tushibdi. Boshi oqqan tomonga qarab ketaveribdi. Yurib-yurib bir joydan chiqib qolibdi. Qarasa katta yo'l yetti tomonga ayrilib ketganmish. Shu joyda soch-soqoli oppoq nuroniy bir keksani uchratib qolibdi.

— Buvajon, obihayot suviga qaysi yo'ldan boriladi, — so'rabdi yigit undan. Chol Terexiu suvining yo'lini ko'rsatib beribdi.

— Shu yo‘ldan borsam necha kunda yetaman, — yana so‘rabdi O‘rol.

— Bu savolingga javob bera olmayman, — debdi chol. — Qirq yildan beri ne-ne shunqor yigitlarga yo‘l ko‘rsataman. Ammo birortasi uyoqdan omon qaytganini ko‘rganim yo‘q. — Chol shunday deb O‘rolga tayinlabdi:

— Yo‘lda otlar uyuriga duch kelasan. Uyur ichida uchqur Oq ot o‘tblab yuradi. Chapdastlik bilan unga minib ol.

O‘rol chol bilan xayr-xo‘splashib obihayot suvi tomon yo‘l olibdi. Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Bir payt qarasa yo‘l chetidagi o‘tloqda otlar uyuri o‘tblab yurgan emish. Ularning orasidagi otga O‘rol botir suqlanib qarab qolibdi. Asta ot yoniga kelibdi: Ot esa uni sezibdi. Ammo turgan joyida qimirlamay turaveribdi. O‘rol xuddi qoplondek sakrab otga minibdi. Ammo ot asabiy pishqirib uni osmonga shunday otibdiki, bechora pahlavon yerga tushgach beligacha tuproqqa kirib ketibdi. Urinib-surtinib, bir amallab chiqib olgach yana otga tashlanib, burgaday mahkam yopishib olibdi. Ot har qancha urinmasin uni yiqita olmabdi. Keyin yana asabiy pishqirib qaysidir tomonga qarab chopib ketibdi.

Eh, xuddi uchib borayotganda-ya! Ufqlarga tutashib ketgan vodiylar, tog‘lar, yonbag‘irlar, tubsiz jarliklar, dasht-u biyobonlar ortda qolibdi. Nihoyat ot qulab tushgan qop-qora daraxtlar oldida to‘xtabdi. O‘rol nima

gapligini bilish uchun sakrab yerga tushibdi. Shu payt ot odamlarga o‘xshab gapira boshlabdi:

— To‘qqiz boshli devning makoniga yetib keldik. U obihayot yo‘lini to‘sib olgan, hech kimni o‘tkazmaydi. Sen uni o‘ldirishing kerak. Yolimdan uch tola qirqib ol. Qiyin ahvolga tushib qolsang ularni kuydir, shu zahotiyoyetib kelaman.

O‘rol otning yolidan uch tola qirqib olibdi. Ot shu zahoti ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. O‘rol nima qilishini, qayoqqa qarab yurishini bilmay turgan joyida turib qolibdi. Bir mahal yonidan og‘ir qopni zo‘r-bazo‘r ko‘tarib borayotgan sohibjamol qiz o‘tib qolibdi. O‘rol qizni to‘xtatib so‘rabdi:

— Hoy, singlim, qayoqqa ketyapsan? Qopingdagi nima balo, toshmi, deyman-a?

Qiz to‘xtab boshidan o‘tganlarini yigitga gapirib beribdi. Bechoraning ismi Qoraqosh ekan. Bundan bir necha kun avval dev uni o‘g‘irlab kelib, uyining cho‘risi qilib qo‘yibdi. To‘qqiz boshli devning to‘qqizta o‘g‘li bor ekan. Qoraqosh ertadan kechgacha daryo bo‘yidan devning bolalariga munchoqtosh tashir ekan.

O‘rolning qizga rahmi kelib ketibdi.

— Kel, singlim, qopingni menga ber, o‘zim olib borib beraman, — debdi u mehribonlik bilan.

Qiz qo‘rqib ketibdi.

— Yo‘q-yo‘q, yo‘lingdan qolma. Dev sezib qolgu-dek bo‘lsa, shu zahotiyoyetib seni o‘ldiradi, — debdi yigitga.

O'rol qo'rqmabdi. Qizning qopini devning bolalari o'ynayotgan joygacha ko'tarib boribdi. Qopning og'zini ochib munchoqtoshlarni ag'dargan ekan, devchalar xursand bo'lishib, o'mbaloq-do'mbaloq oshib, toshlarni bir-birlariga otib o'ynay boshlashibdi. O'rol bo'lsa otning kallasiday keladigan toshni olib qayrag'ochning ayrisiga osib qo'yibdi-da, asta dev yashaydigan g'orga yaqinlashibdi.

Devchalar munchoqlarni o'ynab bo'lishib, ayirdagi toshning oldiga kelishib unga tikilib qolishibdi. Bittasi qo'lini sal tekkizgan ekan, tosh tushib oyog'ini majaqlabdi. Devbolaning jahli chiqib toshni bor kuchi bilan otib yuboribdi. Tosh qoyaga urilib qaytibdi. Avval oyog'i singan bo'lsa, endi boshi yorilibdi.

Devchalar shunday qilib boshlarini yorib turishsin, endi gapni devdan eshititing. Aytishlaricha, O'rol botir yurib kelgan yo'l toqqa tutashgan qorong'i g'or oldida, to'qqiz boshli dev yonboshlab yotgan joyda ekan. Uning oldida odam suyaklari xirmon bo'lib uyulib yotgan mish. O'rol botir devni ko'riboq hayqiribdi:

— Hoy dev, yo'ldan qoch, men obihayotga bori-shim kerak.

Dev bu gapga parvo ham qilmabdi. Botir so'zlarini yana takrorlabdi:

— Yo'ldan qoch deyapman, senga!

Devning jahli chiqib ketibdi. Havoni so'rib qornini qappaytira boshlagan ekan, havoga qo'shilib botir ham sal bo'lmasa devning og'ziga kirib ketay debdi. Ammo u hech ham qo'rqmabdi.

— Xo'sh, — debdi botir, — kurashamizmi yo mushtlashib qo'ya qolamizmi?

Dev bunaqa botirlarni ko'plab ko'rgan, hammasini yenggan ekan-da, kuchiga ishonib, mazax qilib shunday debdi:

— Menga baribir, o'lging kelgan ekan, joning qanaqasiga uzilishining nima farqi bor.

Ikkovi tog'ning baland cho'qqisiga chiqib kurashga tushib ketishibdi. Ammo vaqt peshindan og'ibdi hamki, bir-birlarini yiqita olishmabdi. Quyosh botay-botay deb qolganida dev chaqqonlik qilib O'rol botirning oyog'ini yerdan uzib chunonam otibdiki, botir bechora beligacha yerga kirib ketibdi. Ikkinci bor otganida tashqarida faqat kallasi qolibdi, xolos. Dev O'rolning qulog'idan ushlab tortib chiqaribdi. Xuddi hech nima bo'limganday yana kurasha boshlabdilar.

Quyosh botib, atrofga qorong'ilik cho'ka boshlaganida O'rol botir butun kuchini to'plab devning oyog'ini yerdan uzib chunonam otibdiki, u qaytib tushib beligacha yerga kirib ketibdi. Botir vaqtini qo'ldan boy bermay yana ko'tarib otgan ekan dev bo'ynigacha tuproqqa botibdi. Yerning ustida to'qqizta kallasi qolibdi, xolos. O'rol botir devni sug'urib olibdi. Ular yana kurasha boshlabdilar. Dev hali o'ziga kelib ulgurmay O'rol botir uni dast ko'tarib shunaqa baland otibdiki, bu gal dev yerning qa'rige butunlay kirib ketibdi. Aytishlaricha, o'sha zahotiyoy devning joni uzilibdi.

Endi bir og‘iz gapni cho‘ri Qoraqoshdan eshiting. U qoyaga ko‘tarilib o‘ziga yordam bergan jasur yigitning suyaklarini to‘plab ko‘mmoqchi bo‘libdi (Dev uni allaqachon jahannamga jo‘natgan, deb o‘ylagan ekan-da). Qarasa pahlavon yigit tirik emish. Xursand bo‘lganidan ko‘zlarida yosh miltirabdi.

— Dev qani? — so‘rabdi qiz O‘rol botirdan.

— Men uni asfalasofilinga jo‘natdim, — debdi yigit.

Shu payt sal nariroqda yerning ostidan chir aylanib tutun chiqqa boshlabdi. Sal o‘tmay tutun olovga aylanibdi.

— Bu nima ekan-a? — hayron bo‘lib so‘rabdi Qora-qosh.

— Xuddi shu joyda devning ajali yetgan edi, — debdi yigit. — Yer uni bag‘riga olishdan hazar qildi chog‘i. Mana, kuyib kulga aylandi.

Aytishlariga qaraganda, o‘sha joydan hamon olov chiqib turar emish. Shuning uchun ham odamlar bu yerni Olov tog‘ deb atagan ekanlar.

Devni yenggach O‘rol botir Qoraqosh bilan birga pastga tushishibdi. Otning yolini kuydirgan ekan, u bir zumda oldilariga yetib kelibdi. Qiz bilan yigit otga minib obihayot tomon yo‘l olibdilar.

Yo‘l yurishibdi, yo‘l yurishsa ham mo‘l yurishibdi. Bepoyon vodiyilar, o‘tib bo‘lmas qoyalar, tubsiz jarliklar ortda qolibdi. Bir joyga yetganlarida ot to‘xtab shunday debdi:

— Obihayot bulog‘iga yaqinlashib qoldik. Suvni o‘n ikki boshli dev qo‘riqlab yotibdi. Sen uni yengishing

kerak. Yolimdan yana qirqib ol. Kerak bo‘lib qolsam bir zumda yetib kelaman.

O‘rol botir otning aytganlarini qilibdi. Ot ko‘zdan g‘oyib bo‘lgach qizga debdi:

— Mana shu yerda kutib tur. Devni o‘Idirsam qaytib kelaman. Mana bu quray¹ni senga qoldiraman. Omadim kelib devni yengsam undan sut tomchilaydi, halok bo‘lsam qon oqadi.

Yigit shunday debdi-da, Qoraqoshni qoldirib o‘n ikki boshli devning makoniga qarab yo‘l olibdi.

Mana, nihoyat jildirab oqayotgan hayotbaxsh suv ko‘zga tashlanibdi. U tog‘ bag‘ridan oqib chiqar va shu zahotiyoq qayta yo‘q bo‘lar ekan. O‘n ikki boshli qari dev qo‘riqlab yotgan bu suvning har tomchisi bemorni sog‘aytirar, sog‘ni esa mangu barhayot qilar ekan.

Devga yaqinlashgach, O‘rol botir unga qarab hayqiribdi:

— Hoy dev, yo‘ldan qoch.

Dev pinagini ham buzmay qanday yotgan bo‘lsa shunday yotaveribdi.

— Qulog‘ing karmi, yo‘ldan qoch deyapman, — debdi botir ovozini yanada balandlatib.

Dev vajohat bilan o‘rnidan qo‘zg‘alibdi-da, chiyllagan ovoz chiqarib botirni domiga torta boshlabdi. O‘rol botir o‘zini yo‘qotmay shunday debdi:

— Kurashamizmi, yo mushtlashib qo‘ya qolamizmi?

¹ Q u r a y — boshqird milliy cholg‘u asbobi.

Dev bunaqa pahlavonlarning ko‘pini ko‘rgan emasmi, pinagini ham buzmay javob beribdi:

— Menga baribir, o‘lging kelgan ekan, xohlaganiningni tanlayver.

— Unday bo‘lsa o‘zingdan ko‘r, — O‘rol botir shunday debdi-da, olmos qilichini qo‘liga olib havoda o‘ynata boshlabdi. Chaqmoq chaqilganday hammayoq yorishib devning ko‘zi ko‘rmay qolayozibdi.

— Tayyorgarligingni ko‘raver, mana shu qilich bilan joningni jahannamga jo‘nataman, — deb O‘rol botir devga tashlanibdi. Qilichi bilan har hamla qilganida devning bittadan boshi uzilib tushaveribdi.

Qoraqoshning qo‘lidagi quraydan sut tomchilay boshlabdi. Qiz xursand bo‘lib ketibdi.

Shu paytda devning halokatli baqirig‘ini eshitib choratrofdan kichik-kichik devchalar, ajdaholar yig‘ilib kela boshlabdi. O‘rol botir qo‘rquv nimaligini bilmay ularni ham birin-ketin qilichdan o‘tkazaveribdi. Bulutlarga yetgudek alp qomati, kuchli oyoqlari, zabardast va chaqqon qo‘llariga na dev, na ajdaho bas kela olibdi.

Devchalar, ajdaholarning hammasi yer bilan yakson bo‘lay deganida allaqayoqdan yetib kelgan jin va parilar botirni o‘rab olib, tegrasida gir aylanib tinka-madorini quritishibdi. Qizning qo‘lidagi quraydan qon tomchilay boshlabdi. Qoraqosh qattiq xafa bo‘libdi. Ammo uzoq o‘ylab o‘tirmay qurayni og‘ziga bosibdi-da, allaqanday yeqimsiz kuyni chala boshlabdi. Jin va parilar xuddi

shuni kutib turishganday botirni o‘z holiga qo‘yib, dikanglab, beo‘xshov qiliqlar qilib o‘yinga tushib ketishibdi.

O‘rol botir devlar-u jinlarning hammasini yengib bo‘lganiga ishonch hosil qilibdi. Endi borib obihayot suvining yo‘lini ochaman, odamlarni mangu barhayot qilaman, deb xursand bo‘libdi. Ammo buloqning oldiga kelib qarasa buloq tap-taqir qurib yotgan emish. Botirning qilichidan omon qochib qutulgan jin va parilar suv odamlarga nasib qilmasin, deb bir tomchi ham qoldirmay ichib qo‘yishgan ekan. O‘rol botir buloq tepasida qancha o‘tirmasin bir ho‘plam ham suv sizib chiqmabdi.

O‘rol botir qattiq xafa bo‘libdi. Ammo ko‘p o‘tmay xursand bo‘lib ketibdi. Avvallari tap-taqir bo‘lib yotgan chor-atroflar yam-yashil tus olib, dov-daraxtlar, o‘t-o‘lanlar o‘sса boshlabdi. Qushlar uchib kelishibdi, bulbullarning shodon xonishlari eshitilibdi.

O‘rol botir bo‘z otini chaqiribdi. Qoraqosh ikkovi otga minib devlar va jinlar makonini tark etishibdi. Botirning qilichidan yer tishlagan devlarning o‘liklari tog‘day uyulib ketibdi. Odamlar unga Yomontog‘ deb nom berishibdi.

O‘rol botir bilan Qoraqosh turmush qurishibdi. Yillar o‘tib, uch o‘g‘illik bo‘lishibdi. Kattasining ismini Ideal, o‘rtanchasini Yoyiq, kenjasini esa, Xakmar qo‘yishibdi.

Endi bu o‘lkalarga ajal deyarli qadam bosmay qo‘yibdi. Chunki ular O‘rol botirdan, uning chaqmoq

chaqadigan olmos qilichidan qo‘rqishar ekan. Odamlar ko‘paya boshlabdi. Yillar o‘tib shu qadar ko‘payib ketishibdiki, suv yetishmay qolibdi. Buni ko‘rgan O‘rol botir qilichini qinidan sug‘uribdi-da, boshi uzra uch bor aylantirib yerga sanchibdi.

— Shu joydan katta suv chiqadi, — debdi u odamlarni ruhlantirib. Katta o‘g‘li Idealni yoniga chorlab unga shunday debdi:

— Bor o‘g‘lim, oyog‘ing tortgan tomonga qarab yo‘l ol. Odamlar bilan muloqotda bo‘l. Katta daryoga duch kelmaguningcha izingga qaytma.

Katta o‘g‘il otasining aytganlarini qilibdi. Janub tomon yo‘l olib yurgan yo‘lida chuqr izlar qoldirib ketaveribdi. Otasi bo‘lsa o‘g‘lini eslab ko‘z yoshlari to‘kibdi. Chunki u Idealning qaytib kelmasligini bilar ekan-da.

Ideal bir zum bo‘lsa-da tinim bilmay uzoq yuribdi. Yurib-yurib oxiri bir joyga yetganida o‘ngga burilibdi, so‘ng shimol tomonga qarab keta boshlabdi. Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Oradan oylar, haftalar, yillar o‘tibdi. Oxiri kunbotar tomonga buri-libdi. Yurib-yurib suvi limmo-lim daryo oldiga kelib qolibdi. Daryo qirg‘oqlaridagi qamishzorlarda suvsarlar g‘ujg‘on o‘ynab yotgan emish.

Ideal otasi tayinlaganidek, faqat shundagina orqasiga qarabdi. Qarasa yo‘llarda qoldirib kelgan izlari bo‘ylab shaffof suv oqib yotganmish. Bu suv kelib daryoga qo‘silibdi.

Go‘zal Agidel daryosi shunday paydo bo‘lgan ekan.

Endi gapni boshqa yoqdan eshiting. Ideal yo‘lga chiqqan kuni O‘rol botir Yoyiq bilan Xakmarni ham safarga jo‘natgan ekan. Ammo ular erinchoq va sabrsiz ekanlar. Yo‘llardagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga irodalari yetmabdi. Xakmar uydan chiqishi bilanoq yolg‘izlikdan zerika boshlabdi. «Bitta o‘zim sandiroqlab yuramanmi», debdi-da akasi Yoyiq ketgan tomonga qarab burilibdi. «Ikkovimiz birga bo‘lsak hech narsadan qo‘rqmaymiz, chaqchaqlashib ketaveramiz», deb o‘ylabdi.

O‘rtancha aka ham xuddi shunday fikrga borib allaqachon janubdan g‘arbgan qarab yura boshlabdi. Oradan ko‘p o‘tmay ular keng yalanglikda uchrashibdilar. Keyin esa katta ko‘lgacha birga ketishibdi.

Shunday bo‘lsa-da odamlar Ideal bilan birga Yoyiq va Xakmardan juda ham minnatdor bo‘lishibdi. Shunday azamatlarni voyaga yetkazgan O‘rol botirga uzoq umr tilashibdi.

Bu vaqtga kelib O‘rol botirning yoshi bir yuz-u birga yetibdi. Umr nihoyasi yaqinlashib ajal asta unga yaqinlasha boshlabdi.

O‘rol botir to‘sakda uzoq yotib qolibdi. Ayriliq damlari yaqinlashganini sezgan xalq chuqur qayg‘uga botibdi.

Bir payt o‘rta yoshlardagi bir kishi olomon orasidan yorib chiqibdi-da, O‘rol botirga qarab shunday debdi:

— Hurmatli pahlavonimiz, botirlarning botiri!
Tobing qochgan kuni odamlar meni o‘zing dev va

parilardan ozod qilgan Obihayot bulog‘iga yuborishgan edi. Buloq butunlay qurib qolmagan ekan. Yetti kecha-yu yetti kunduz o‘tirib shoxni suvgaga to‘ldirdim. Sen bizga otalik qilding, endi obihayotni ich, mangu barhayot bo‘lib bizga bosh bo‘l.

— Hammasini ich, — yolvoribdi xalq.

O‘rol botir asta o‘rnidan turibdi. Xalqqa ta’zim qilib og‘zini suvgaga to‘latibdi. Ammo bir qultumini ham yutmay yon atrofiga, orqa va oldiga purkab yuboribdi. Keyin odamlarga qarab shunday debdi:

— Yolg‘iz kishining qo‘lidan nima ham kelardi. Sizlar ko‘pchiliksiz. Men emas, ona zaminimiz, muqaddas tuprog‘imiz barhayot bo‘lmog‘i lozim. Faqat shundagina sizlar baxtli hayot kechirasizlar, turmush-laringiz to‘kin-sochin bo‘ladi.

Botirning so‘zlari tugab-tugamayoq chor-atrof yashnab ketibdi. O‘t-o‘lanlar barq urib o‘saga boshlabdi, gullar qiyg‘os ochilibdi. Daraxtlar meva tugibdi. Sayroqi qushlar, bulbullarning xonishi eshitilibdi. Irmoqlar chuldirab oqa boshlabdi. Yangi-yangi daryolar, ko‘llar hosil bo‘libdi. Ko‘l uzra oqqushlar suza boshlabdi, tepada oq charloqlar qanot qoqibdi...

Eh, bunaqangi zamonda kimning ham yashagisi kelmaydi, deysiz.

To‘qson yoshli baxshi baland tepalikka chiqib qo‘sish qoshlabdi.

Hali-hanuz xalq orasidagi mashhur bu qo‘sish shunday tug‘ilgan ekan.



Baxshi qo'shig'ini kuylab tugatganida O'rol botir bu dunyoni manguga tark etibdi. Odamlar uni izzatikrom bilan baland tepalikka dafn etishibdi. Dafn marosimiga kelganlar botirning qabriga bir siqimdan tuproq tashlashibdi. Bu odat yillar osha davom etibdi. Bora-bora qabr tepasida ulkan tog' paydo bo'libdi. Odamlar unga O'roltug' deb nom berishibdi.

Aytishlariga qaraganda, tog'ni qazigan kishi hozir ham O'rol botirning tilla, kumush, turli qimmatbaho toshlarga aylanib ketgan suyaklarini uchratishi mumkin ekan. Botirning qoni esa, vaqt o'tishi bilan qorayib, yermoy bo'lib oqayotgan mish, odamlarga xizmat qilayotgan emish.

ALP BOTIR

Qadim zamonda, aytishlaricha, Agidelning bo'yida chol bilan kampir yashagan ekan. Chol ovchilik qilib, kampir ip yigirib, bo'z to'qib kun kechirishar ekan. Ularning birqalikda o'tkazgan uzoq yillik umrlari shunday o'tibdi. Yoshlarini yashab, oshlarini oshab bo'lay deganlarida birdaniga boshlarini changallab qayg'uga botishibdi. Nega deysizmi, nega bo'lardi, axir orqalarida qoladigan birorta farzandlari yo'q ekan-da. Mana endi, hademay vafot etib ketishadi, hech kim durustroq eslamaydi ham.

Chol judayam xafa bo'libdi. Kamon-yoyini qo'liga olib, boltani beliga qistirib uyidan chiqib ketibdi. Dili

xufton emasmi, boshi oqqan tomonga qarab keta-veribdi. Yurib-yurib oxiri bir tog‘ning etagiga yetib kelibdi. O‘tirib dam olmoqchi bo‘libdi. Ammo charchaganidanmi, darhol uqlab qolibdi. Tush ko‘rsa, tog‘ning egasi oldiga kelgan mish.

— Ha buvajon, — dermish u cholga qarab, — qayg‘uga botib qolibsiz, tinchlikmi o‘zi?

— Ey o‘g‘lim, — debdi chol soqolini silkillatib, — sen so‘rama, men aytmay. Shuncha yil umr ko‘rdim, ammo tirnoqqa zorman. O‘lib ketsam, meni kim eslaydi.

Tog‘ning egasi javob beribdi:

— Birov o‘lmasa boshqa bir kishi tug‘ilmaydi. O‘g‘illik bo‘lishing mumkin, ammo buning uchun sen bandalikni bajo keltirishing kerak.

Chol rozi bo‘libdi. Tog‘ning egasi toshlar orasiga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. Chol bo‘lsa nima qilishini bilmay o‘ylanib qolibdi. Bir payt desangiz u o‘tirgan yapaloq tosh qimirlay boshlabdi. Chol cho‘chib uyg‘onibdi-yu, belidagi boltani qo‘liga olib bor kuchi bilan toshni ikkiga bo‘lib tashlabdi. Hammayoq larzaga kelib titray boshlabdi. Toshlar orasidan xushsurat, alpqomat bir yigit chiqibdi.

Chol hayratdan yoqasini ushlab turgan yerida qotib qolibdi. Yigit bo‘lsa muloyim kulimsirab uning oldiga kelibdi va: «Men, sizga o‘g‘il bo‘lgani keldim», debdi. «Xush kelibsan, o‘g‘lim, men seni umr bo‘yi kutdim-a», — debdi chol quvonib.

Chol mundoq qarasa o‘g‘li xushbichim, pahlavon kelbatli emish. Har bir panjası bilakday, bilaklari qarag‘ayday, oyoqlari qayiqday, yelkalari ang‘izday keng, qomati arg‘uvon daraxtiday emish.

— O‘g‘lim, mana bu qurollar endi seniki bo‘laqolsin, — debdi chol va o‘g‘liga o‘q-yoyi va boltasini beribdi.

— Rahmat, dadajon, — debdi yigit, — bular o‘zingizda qolaqolsin. Menga sal kattaroq bir nima toparmiz.

— So‘zimni qaytarma, — debdi chol, — bular menga buvamdan yodgorlik bo‘lib qolgan. Olaqol, kamon bilan ov qilasan, boltada bo‘lsa o‘rmon kesasan.

Yigit «xo‘p bo‘ladi» debdi-da kamonni qo‘liga olibdi. Uyoq-buyog‘ini ko‘rib sal tortmoqchi bo‘lgan ekan, qasir-qusur ovoz chiqaribdi-yu, sinib ketibdi. Kamoning ovozidan tog‘lar larzaga kelib qimirlab ketibdi, tosh ko‘chibdi. Chol hushdan ketib yiqilibdi. Bir narsa demoqchi bo‘lib og‘iz juftlabdi. Ammo «Alp...», deyishga ulgurib-ulgurmay bandalikni bajo keltiribdi.

Pahlavon yigit avvaliga nima qilishini bilmay turib qolibdi. Keyin aql-u hushini yig‘ib, izzat-ikrom bilan otasini tuproqqa topshiribdi. Keyin otasidan qolgan boltani ustara tig‘iday o‘tkirlab o‘rmon ichiga kirib ketibdi. Bahaybat eman daraxtini yiqitib, uchiga ayiqning ichaklarini eshib, o‘ziga kamon yasab olibdi. Qo‘liga qurolini olib ov qilgani yo‘lga tushibdi.

O‘rol tog‘idan oshib o‘tgach, yana yetti qadam yurib to‘xtabdi. Nafasini rostlamoqchi bo‘lib o‘tloqqa yonboshlabdi. Qarama-qarshi tomondagi tog‘da

yashaydigan xonning botir qizini ko‘rib qolibdi. Pahlavon va sohibjamol qizning ikki uyur ot sig‘adigan kattakon o‘tovi bor ekan.

Qiz yigitni huzuriga chorlab so‘rabdi:

— Isming nima, pahlavon yigit?

Yigit nima deb javob qilishini bilmay turib qolibdi.

— Ism degani nimasi?

Qiz kulib yuboribdi.

— Seni odamlar kim deb chaqirishadi?

— O‘limi oldidan otam meni «Alp» deganlarini bilaman, xolos, — debdi yigit.

— Demak, isming Alp botir ekan-da, — xursand bo‘lib debdi qiz. — Kel, kurashamiz. G‘olib chiqsang senga xotin bo‘lamан.

Yigit rozi bo‘libdi. Kurash boshlanibdi. Pahlavonlar yetti kecha-yu yetti kunduz tinim bilishmabdi. Oxiri Alp botir g‘olib chiqibdi.

— Xo‘sish, sohibjamol, endi so‘zlaringga amal qilarsan, — debdi yigit.

— Men roziman, — debdi qiz. Men — senikiman, sen — menikisan. Kuch-quvvatimizni sinashdik. Endi bir umrga birgamiz.

— Isming nima? — so‘rabdi Alp botir.

— Ismim Barxin, — debdi qiz.

— Barxinoy, o‘zimning Barxinim, Barxinjonim. — Alp botir xursand bo‘lib qallig‘ini bag‘riga bosibdi.

Pahlavon kelin-kuyovlarning to‘ylari bo‘lib o‘tibdi. Bir-birlariga sadoqatli bo‘lib uzoq umr ko‘rishiбди.

Naql qilishlaricha, ular yettita o‘g‘illik bo‘lishgan, boshqirdlarning yettita urug‘i shu yigitlardan tarqagan ekan. Yetti og‘a-ini urug‘lari O‘rol tog‘i yonbag‘irlarida joylashibdi. Alp botirning qadamlari tushgan yetti joy ularning bepoyon o‘tloqlari bo‘lgan ekan.

ALPOMISH BOTIR

Aytishlariga qaraganda, qadim zamonda chol bilan kampir yashagan ekan. Buzilay-buzilay deb turgan eski uyda amallab tirikchilik o‘tkazishar ekan. Buning ustiga farzandlari ham yo‘q ekan. Chol boyga xizmatkor bo‘lib ertadan kechgacha tinim bilmay xizmat qilar, ammo qorni to‘yib ovqat ham yemas ekan. O‘zidan birorta surriyot qolmayotgani yodiga tushsa yurak-bag‘ri ezilib ketar ekan.

Kunlarning birida chol-kampir uyg‘a kelishsa kulbalarida chaqaloq bola big‘illab yotgan emish.

— Voy, xudoyim-ey, bu kimning bolasi? — deb hayron bo‘libdi kampir.

— Kimniki bo‘lardi, o‘zimiznikida, — debdi chol xursand bo‘lib.

— Ismini nima qo‘yamiz.

— Ismi Alpomish, — debdi chol.

Qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘larni chaqirib o‘g‘illik bo‘lishganidan hammani xabardor qilishibdi, baholi qudrat dasturxon ham yozishibdi.

Bola kun emas, soat, daqiqayayin ulg'aya boshlabdi. Ikki yoshga to'lganida bemalol otasiga qarashadigan bo'libdi.

— Otajon, keksayib qoldingiz, biroz damingizni oling, o'rningizga men ishlayman, — der emish. Otasi: «Bolam, sen hali kichkinasan, katta bo'lganiningda yordamlasharsan», deganiga qaramasdan cholning o'rniga ishlay boshlabdi. Qanaqa ish buyurishmasin, bir zumda bajarib qo'yay ekan. Ota benihoya xursand bo'lib ketibdi.

Kunlarning birida bolaning qulog'iga qaysidir podshohlikda pahlavonlarning bellashuvi bo'lishi to'g'risidagi gap chalinib qolibdi.

— Ota, — debdi Alpomish, — menga ot topib bering, bellashuvga bormoqchiman.

— Bolam, mendek bir bechorada ot nima qilsin, — debdi chol o'ksinib.

Alpomish o'ylab o'tirmay qo'shni ovulda yashaydigan boyning oldiga boribdi.

— Boyvuchcha, menga bitta ot berib turing, — debdi muloyimlik bilan. — O'lmasam bir kuni pulini to'layman.

Boy rozi bo'libdi.

— Otxonaga kirib ko'nglingga yoqqanini tanlab olaver, — debdi u.

Alpomish to'g'ri omborga borib egar-jabduq, yugan olibdi. Keyin otxonaga borib otlarni tanlay boshlabdi. Yuganga qadalgan kumushlarni bir-biriga urib shiqir-

latgan ekan, yag‘ir bosgan ko‘rimsizgina bir toychoq boshini ko‘tarib Alpomishga qarabdi.

— Menga qaradimi, demak, xuddi shu otni tanlaganim bo‘lsin, — debdi Alpomish va toychoqni tashqariga olib chiqib yaxshilab egarlabdi. Keyin boyning oldiga kelib undan o‘q-yoy ham iltimos qilibdi. Boy e’tiroz bildirmabdi.

Alpomish toychoqni yetaklab yo‘lga tushibdi. Toychoq yo‘l yurganlari sari kattalasha boshlabdi. Yag‘irlari bitib, hademay qomatlari kelishgan uchqur tulporga aylanibdi. Daryo yoqasiga yetib kelishgach, botir otni suvga qondiribdi-da egarga minibdi. Ot gapga kirib shunday debdi:

— Alpomish botir, qo‘lingdagi qamchin bilan meni uch marta ur. Birinchi urganingda terim achishsin, ikkinchisida badanim zirqirasin, uchinchisi esa suyak-suyagimdan o‘tib ketsin.

Alpomish botir otning aytganlarini qilibdi.

— Endi ko‘zingni yum, — buyuribdi tulpor.

Botir ko‘zini ochib-yumishga ulgurmey ot uni uyiga yetkazib kelibdi. Ota-onasi xavotir olib o‘tirishgan ekan, o‘g‘illarini ko‘rib xursand bo‘lib ketishibdi.

Alpomish uyida bir kecha tunab ertasiga botirlar bellashuvi bo‘ladigan podshohlik tomon jo‘nab ketibdi. Tulpori uni bir zumda tumonat odam to‘plangan joyga yetkazib kelibdi. Kurash allaqachon boshlangan ekan. Alpomish otini qo‘yib yuborib maydon sari yurmoq-chi bo‘lgan ekan, tulpor tilga kirib shunday debdi:

— Yolimdan uch tolasini qirqib ol. Kerak bo‘lib qolsam ularni og‘zingga olib borib hushtak chalishing bilan yoningda bo‘laman.

Alpomish otning aytganini qilibdi. Keyin asta kurash bo‘layotgan joyga borib bellashuvlarni tomosha qila boshlabdi. Pahlavonlardan biri maydon o‘rtasida turganmish, u bilan bellashgani hech kimning yuragi dov bermayotgan ekan. Alpomish o‘ylab o‘tirmay:

— Belbog‘ keltiringlar, pahlavon bilan men bella-shaman, — debdi.

Tomoshaga to‘plangan odamlar jim bo‘lib qolishibdi. Boyvuchchalar mazax qilib kula boshlabdilar.

— Nima balo, jonida qasdi bormi bu yalangoyoq-ning. Ular kulgidan o‘zlarini tiya olmay, — ne-ne botirlar eplay olmagan ishni shu jipiriq eplarmidi?! — deb hayron bo‘lishibdi.

O‘rtada qad rostlab turgan pahlavonning ismi Qorabotir ekan. Alpomish boyvachchalarining mazax qilishlariga qaramay bilaklarini yozib, bor kuchini to‘plab unga peshvoz chiqibdi. Qorabotir tishlarini g‘ijirlatib, tirnoqlari bilan maydonni o‘yib Alpomishga tashlanibdi. Kurash boshlanib ketibdi. Pahlavonlar olisha-olisha yarim bellarigacha yerga kirib ketishibdi. Shunda desangiz, Alpomish raqibini yerdan uzibdi-da, osmonga otib yuboribdi. Qorabotir tog‘ bo‘yi ko‘tarilib qaytib tushayotganida asta ushlab olibdi. Boyvachchalar chinqira boshlashibdi:

— E, bunaqasi ketmaydi, yelkasi yerga tegmadimi, hisob emas.

— Nega hisob emas ekan, qoyil azamat, — deb chuvillabdi bir necha kishi.

Alpomishning jahli chiqib Qorabotirni ikkinchi marta osmonga otibdi. Boylar bu safar ham norozi bo‘lishibdi. Uchinchi bor otganida Qorabotir bulutlardan ham balandga chiqib bir zum ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. Keyin jon-holatda tusha boshlagan ekan, Alpomish yana ushlab olibdi-da, maydon chetida o‘tirgan hurmatli odamlarning oldiga olib kelib kigiz ustiga xuddi yosh boladay o‘tkazib qo‘yibdi.

Maydonga yig‘ilgan olomon Alpomish botirni olqishlay boshlashibdi.

— Botir degani mana bunaqa bo‘libdi. Otangga rahmat!

Odamlar xursand bo‘lishib Alpomish botirni qimiz, sovg‘a-salom bilan siylay boshlashibdi.

Mamlakat shohi kim Qorabotirni yengsa, ot ustida turib kamon o‘qini uzuk halqasidan o‘tkazsa va nihoyat ajdahoni o‘ldirsa, unga yarim podshohlikni beraman, o‘zimga kuyov qilib olaman, degan ekan.

Birinchi shart bajarildi. Endi ikkinchisini bajarish kerak. Alpomish tulporini yoniga chaqirib omadini sinab ko‘rishga hozirlik ko‘ra boshlabdi. Pahlavonlar otlariga minib, o‘q-yoyolarini sozlab yo‘lga tushibdilar. Uzuk baland qoyaning ustida ko‘zni qamashtirgudek bo‘lib yaltirab turgan emish. Alpomish raqiblarini oldinga o‘tkazib yuboribdi. Ammo ularning birortasi ham shohning ikkinchi shartini bajara olmabdi. Chunki

tog‘ qoyasi nihoyat baland bo‘lib, o‘qni unga yetkazishning o‘zi amrimahol ekan.

Nihoyat kamon otish navbat Alpomishga yetibdi. Tulporiga qamchi bosib qoya tomon ot qo‘yibdi-da, tovlanib turgan uzuk halqasini mo‘ljalga olib yoy tortibdi. Kamon yoyi to‘ppa-to‘g‘ri borib uzuk halqasidan o‘tibdi va havoda bir aylanib odamlar to‘planib turgan maydon o‘rtasidagi daraxtgaga uzuk bilan sanchilib qolibdi. Xaloyiq Alpomishni olqishlabdi.

Endi navbat uchinchi shartga kelibdi. Aytishlaricha, bu yurtga allaqayoqdan olti boshli ajdaho kelib qolgan ekan. Niyati podshohning yakka-yu yolg‘iz qizini yejish ekan. Podshoh qo‘rqib ketib malikani toshdan qurilgan yerto‘laga yashirib qo‘yibdi. Yerto‘la eshigi oldiga qo‘riqchilar tayinlabdi.

Alpomishni qizning oldiga olib kelishibdi.

— Men biroz mizg‘ib olay, — debdi botir, — ajdaho kelib qolgudek bo‘lsa mana bu xanjarni badanimga suqib meni uyg‘otasan.

Alpomish o‘tirgan joyida qattiq uyquga ketibdi.

Oradan ko‘p o‘tmay yer-u ko‘kni larzaga keltirib, og‘zidan qora tutun chiqarib ajdaho kela boshlabdi. Malika yum-yum yig‘lashga tushibdi. Ko‘z yoshlari irmoq bo‘lib uch tomonga oqibdi. Alpomishni uyg‘otmoqchi bo‘lib qo‘liga xanjarni olibdi. Ammo badaniga sanchishga yuragi dov bermabdi. Qizning qaynoq ko‘z yoshlaridan Alpomishning o‘zi uyg‘onib ketibdi.

— Rosa uxlabman-ku, nega avvalroq uyg‘otma-ding? — debdi botir qaddini rostlab.

Noz-ne’matlar, bir-biridan shirin taomlar tayyor-lab qo‘yilgan ekan. Ammo botir bir-ikki kosa qimiz ichishga ulguribdi, xolos. Ajdaho ofatday yopirilib, eshiklarni sindirib bostirib kela boshlabdi. Alpomish qamchinini yalong‘ochlab uning yo‘lini to‘sibdi. Malika nima qilishini bilmay dag‘-dag‘ titrab turgan emish.

Ajdaho qizning yonida turgan yigitni ko‘rib xursand bo‘lib ketibdi.

— Podshoh meni ja siylab yuboribdi-ku, — debdi u xanjardek tishlarini g‘ijirlatib. — Anchadan beri odam burdalamagan edim.

— Bo‘lsa bordir, — debdi Alpomish pinagini buzmay. — Qani ayt, kurashamizmi yo olishib qo‘ya qolamizmi?

Ajdaho maqtanib ketibdi:

— Menga baribir. Ammo aytib qo‘yay: men sen bilan pachakilashib o‘tirmayman. Bir qultum suvni yutgandek yutib yuboraman.

— Maqtanishga zo‘r ekansan, — debdi Alpomish, — ammo kuchingni maydonda ko‘rsatsang bo‘larmidi. Xo‘s, nima qilamiz, kurashamizmi yo olishamizmi?

Ular olisha boshlashibdi. Ikki kecha-yu ikki kunduz deganda Alpomish ajdahoning so‘nggi oltinchi boshini ham tanasidan judo qilibdi. Qilich bilan maydalab kattakon tosh ostiga mahkamlab bostirib qo‘yibdi. Qiz saroyga kirib kelib xushxabar tarqatibdi:

— Alpomish botir ajdahoni o‘ldirdi.
Podshoh vazirlari orqali botirni huzuriga chorlabdi.
— Rahmat senga jasur yigit, — debdi u minnat-dorchilik bilan. Uchta qizim bor edi. Ikkitasini sen o‘ldirgan ajdaho yutdi. Kenja qizim Oysuluvni qutqarib qolding. Va’damga binoan uni senga berishga roziman. Podshohlikning yarmi ham senga.

To‘y taraddudi boshlanibdi. Podshoh qarindoshurug‘lari, do‘s-t-birodarlarini saroya taklif qilibdi. Alpomishning ota-onasi ham kelibdi. To‘y-tomosha qirq kecha-yu qirq kunduz davom etibdi.

Alpomish xotini, ota-onasi bilan birga muhtasham qasrda yashay boshlabdi. Podshoh unga keng yay-lovlari, suruv-suruv qo‘y-echkilar, uyur-uyur yilqlilar, xizmatkorlar, qo‘ychivon-u yilqiboqarlarni in’om qilibdi. Alpomish boyligining yarmisini kambag‘al bechoralarga bo‘lib beribdi. O‘zi bo‘lsa uchqur tulporini egarlab erta sahardan ov qilgani jo‘nab ketar ekan. Uch kecha-yu uch kunduz ov qilganidan keyin otini o‘tloqqa qo‘yib yuborar ekan-da, o‘zi baland cho‘qqiga chiqib uch kecha-yu uch kunduz qattiq uxlari ekan.

Alpomish botir qattiq uxbab yotaversin, endi ikki og‘iz gapni alamzada Qorabotirdan eshititing.

Qorabotir Alpomish qayerlarda ov qilishini, qayerda uxlashini izma-iz kuzatib yurar ekan. Kunlarning birida u o‘z xizmatkorlariga Alpomish dong qotib yotgan joyda choh qazishni buyuribdi.

Qorabotirning o'n ikki xizmatkori ikki kecha-yu ikki kunduz urinib kamida besh odam bo'yi keladigan chuqur qazishibdi. Keyin uxbab yotgan Alpomishni chuqur tubiga itarib yuborishibdi, ustiga shox-shabbalar tashlab yashirishibdi. Tulporini bo'lsa ushlab olib ketishibdi-da, yerto'laga qamab qo'yishibdi. Qorabotir: «Mana endi, bu dunyoda mening oldimga tushadigan pahlavon yo'q», deb o'zicha maqtana boshlabdi.

Oradan bir necha kun o'tgach Qorabotir Oysuluvga sovchilar yuboribdi.

— Alpomish botir olamdan o'tdi, — debdi u qizning oldiga kelib. — Men senga uylanaman. Bir haftadan so'ng to'yimiz bo'ladi.

— Oysuluv qattiq qayg'uga botibdi. Bir necha kun tinimsiz ko'z yoshlari to'kibdi. Uning roziligesiz to'y kuni belgilanibdi.

To'y arafasida Oysuluvning o'n ikkitami, o'n besh-tami dugonasi meva tergani dalaga chiqishgan ekan, yer ostidan kelayotgan allaqanday mungli ovozni eshitib qolishibdi.

Qoraqoshim, qorasochim Oysuluv, tirikmikin?
Qo'sh qanotli, oltin yolim, tulporim, tirikmikin?
Qorabotir botir emas, yovuz ekan, bilmay qoldim.
Omon qolsam botir so'zim — ul makkoring beray dodin.

O'n ikki kecha-yu o'n ikki kunduz chuqur ichida yotgan Alpomish o'zicha nola qilayotgan ekan. Qizlar

ovoz kelayotgan tomonga qarab yurib kattakon chuqur oldiga kelib qolishibdi.

— Ovoz chiqarayotgan kim? — so‘rashibdi ular.

— Menman. Alpomish botirman, — javob kelibdi pastdan. — Oysuluv omon-esonmi? Tulporim qayerda?

— Otingizni ko‘rganimiz yo‘q, — deyishibdi qizlar. — Oysuluv sog‘-omon. Qorabotir unga uylanmoqchi. Tez kunda to‘y bo‘ladi.

Qizlar Oysuluvning oldiga kelishibdi.

— Suyunchi bering malikam, suyunchi. Alpomish botir tirik ekan...

Qizlar so‘zini tugatmayoq Oysuluv chopib tashqariga chiqibdi. Hammalari birgalikda chuqurning oldiga kelishibdi. Oysuluv uzun sochlarini chuqurning ichiga osiltiribdi, ammo Alpomish har qancha urinmasin qaylig‘ining sochlarini ushlay olmabdi.

— Tulporimni topinglar, usiz meni bu yerdan chiqara olmaysizlar, — debdi Alpomish.

Qizlar Alpomish botirning oti yerto‘lada ekanligini bilishar ekan. Urinib-surinib, hiyla-yu makr ishlatib bo‘lsa-da, kalitni qo‘lga kiritishibdi. Bu paytda to‘y ham boshlanib qolgan ekan. Kelinning dugonalari tashqariga biroz sayr qilgani chiqqan bo‘lib yerto‘la eshigini ochib yuborishibdi. Ot kishnab hovliga o‘qday otilib chiqibdi. Qizlar dod-voy solib uy ichiga kirib yashirinishibdi. Tulpor yer-u ko‘kni titratib Alpomish yotgan chuqur yoniga yetib kelibdi. Oyoqlarini bukip dumini chuqur ichiga solib Alpomishni tortib chiqaribdi. Alpomish

buvoriga minibdi-da, saroy tomon ot qo‘yibdi. Qasrga yaqinlashganida to‘xtab otini qo‘yib yuboribdi, o‘zi bo‘lsa piyoda ichkariga kiribdi. Bu paytda Oysuluvni bitta xonaga qamab ustidan qulflab qo‘yishgan ekan.

Alpomish botirning saroyi ancha keng bo‘lib, oshxonaning o‘zi o‘ndan ortiq katta-kichik xonalardan iborat ekan. Qarasa hamma xonalarda xilma-xil taomlar biqillab pishib yotgan emish. Xizmatkorlar soch-soqoli o‘sib ketgan Alpomishni tanishmabdi.

— Xo‘s, — debdi Alpomish mo‘ylovini silab, — ovqatlar tayyormi? Qorni och bir bechoraga muruvvat qilinglar.

— Xo‘b bo‘ladi, — deyishibdi xizmatkorlar.

Shu payt oshxonaga Qorabotir kirib kelibdi. Taomlarning ta’mini ko‘ra boshlabdi. Qorabotirning orqasidan Alpomish ham xonama-xona yurib ovqatlarni bir luqma ham qo‘ymay pok-pokiza tushira boshlabdi. Qorabotir bo‘lsa hech narsadan xabari yo‘q yemakxonaga kirib: «Qani, ovqatlarni suzinglar, ichaklarim chuldirab ketdi», deb yonboshlabdi. Alpomish oxirgi qozondagi ovqatni ham yeb bo‘lgach oshpazlar nima qilishlarini bilmay o‘takalari yorilayozibdi. Shovqin solishmoqchi bo‘lishgan ekan, Alpomishning vajohatini ko‘rib churq etmay turaverishibdi.

Alpomish mo‘ylovini artib Qorabotir yonboshlab yotgan xonaga kiribdi. Qorabotir uni tanimabdi.

— Hoy Qorabotir, — debdi Alpomish, — yangilikdan xabaring bormi? Alpomish chuqurning ichidan

sog‘-omon chiqib bu yoqqa kelayotganmish. Vajohati yomon emish. Sen bo‘lsa bamaylixotir uzala tushib yotibsan-a.

Qorabotir bu gapni eshitib qo‘rqib ketibdi, rangi oppoq oqarib dag‘-dag‘ titray boshlabdi. Shohning oldiga borib yalinishga tushibdi:

— Shohim askarlarni to‘plash kerak. Alpomishni o‘zim gumdon qilaman.

Qorabotir shohlikda qancha askar bo‘lsa hammasini yig‘ib yo‘lga otlanibdi. Alpomish bo‘lsa kiyim-boshini o‘zgartirib, soch-soqolini tarashlab, qilich-qalqonlarini osib tashqariga chiqibdi. Otining yolini puflagan ekan, u bir zumda yonida paydo bo‘libdi.

Qorabotir hech narsadan bexabar askarlarni safga tizish bilan ovora ekan. Alpomish uning oldiga kelibdi.

— Hoy Qorabotir, — debdi u bor ovozi bilan, — mard bo‘lsang maydonga chiq, kuchingni ko‘rsat.

Qorabotir hech narsa bo‘lmaqanday bamaylixotir so‘rabdi:

— Iye, Alpomish botir, qayoqlarda yuribsan? Qachon kelding?

O‘z sarkardalarini tanigan askarlar sarosimaga tushib qolibdilar.

— Mug‘ombirlik qilma, — debdi Alpomish, — sen mendan qutulmoqchi bo‘lding. Ammo qo‘lingdan hech nima kelgani yo‘q. Endi tulkilik qilib qutulmoq-chimisan? Xomtama bo‘lma. Hozir borib Oysuluvni huzurimga olib kel.

Oradan ko‘p o‘tmay Oysuluvni topib kelishibdi. Alpomish Qorabotirni zindonga tashlatibdi. Hammalari saroya qaytib kelishibdi. Shod-xurramlik boshlanibdi. Hammasi yaxshi tomonga o‘zgaribdi. Ammo zindonda yotgan Qorabotir aslo tavba-tazarru qilmabdi.

Alpomish vazirlariga qatron qaynatishni buyuribdi. Keyin zindondan Qorabotirni olib kelishibdi.

— Qorabotir, — debdi Alpomish, — sen menga ko‘p yomonlik qilding. Niyati qora odam ekansan. Tavba qilganingda gunohlariningdan o‘tishim mumkin edi. Ammo sen bunday qilmading. Endi seni qaynab turgan mana bu qatronga solamiz, qozon ichidan o‘lmay chiqsang, senga boshqa tegmayman, kuningni ko‘rib yuraverasan. Chiqa olmasang o‘zing bilasan.

Qorabotir shunda ham gunohlarini bo‘yniga olmabdi. Aksincha, qo‘rroqlik qilib yalinishga tushibdi. Keng maydon o‘rtasida Alpomish Qorabotirning kallasini qilichi bilan cho‘rt uzib tasklabdi.

Alpomish bilan Oysuluv murod-maqsadlariga yetib, uzoq yillar umr ko‘rishibdi.

XUNAK BILAN IMRAK

Naql qilishlaricha, qadim zamonda bir chol bilan kampir yashagan ekan. Ularning Xunak ismli o‘g‘illari bo‘lib, qaddi-qomati bahodir pahlavonlarga o‘xshab ketar ekan. Ish qilsa qoyillatar ekan, ovqat esa tog‘ora-

tog'ora taom ham yetmay qolarkan. Uxlasa uch kecha-yu uch kunduz yostiqdan boshini ko'tarmas ekan.

Xunak voyaga yetgach o'ziga munosib ish axtarib yo'lga tushibdi. Tog'-u toshlarni, dasht-u biyobonlarni kezib bir yurtga kelib qolibdi. Podshoh notanish pahlavonni ko'rib: «Podshohlikni mendan tortib olmasaydi», deya qo'rqib ketibdi. Nima qilishini bilmay boshini rosa qotiribdi. O'ylay-o'ylay oxiri notanish botirni uxlab yotgan joyida qo'l-oyog'ini bog'lab zindonga tashlamoqchi bo'libdi. Ammo bu ishning iloji bo'lmabdi. Xunak botir bir aksa urgan ekan, arqonlar shatir-shutir uzilib ketibdi.

Podshoh battar qo'rqib ketibdi. Boshini changallab uzoq o'ylabdi-da, oxiri podshohlikda yashaydigan eng keksa kampirni huzuriga chorlabdi.

— Qani ayt-chi, — debdi u kampirga, — odam uza olmaydigan pishiq arqonni nimadan to'qish mumkin? Ammo bilib qo'y, savolimga to'g'ri javob bermasang boshingni tanangdan judo qilaman.

Kampir debdi:

— Ey shoh, to'g'ri aytsam ham, aytmasam ham o'ldiradiganga o'xshaysan. So'raganidan keyin aytganim bo'lsin. Eng kuchli odam ham uza olmaydigan arqonni odam terisidan eshish mumkin.

Shoh kampirni o'ldirib terisidan arqon tayyorlashni buyuribdi. Keyin uxlab yotgan Xunakni mahkam bog'lab zindonga tashlashibdi. U bechora zindonda oyoq-qo'li bog'log'liq yotaversin, endi gapni ota-onasidan eshitting.

Chol-kampir yakka-yu yagona o‘g‘illari dom-daraksiz ketganidan qattiq xafa bo‘lishibdi. Oradan ko‘p o‘tmay yana bir o‘g‘il ko‘rishibdi. Ismini Imrak qo‘yishibdi.

Imrak kun sayin, soat sayin o‘sib ulg‘aya boshlabdi. Bir kuni u bolalar bilan kurash tushayotib janjallahib qolibdi. Bolalardan biri:

— Hoy Imrak, kuching juda oshib-toshib ketgan bo‘lsa bizga zo‘ravonlik qilgandan ko‘ra, yaxshisi, akang Xunakni izlab topsang bo‘lardi, — debdi. Imrak nima deyishini bilmay onasining yoniga chopib kelibdi.

— Onajon, — debdi u, — menga yo‘g‘irmoch qovurib bering.

Onasi kapkirda yo‘g‘irmoch qovura boshlabdi. Kapkir rosa qizigandan keyin Imrak uni onasining qo‘liga bosib so‘rabdi:

— Onajon, to‘g‘risini ayting, Xunak akam qayerda?

Onasi avvaliga hech qanaqa akang yo‘q, deb turib olibdi. Ammo kapkirning qizig‘iga chidamay bor gapni aytishga majbur bo‘libdi.

— Akamni izlab topaman, — debdi Imrak va otasidan cho‘qmor yasab berishni iltimos qilibdi.

Ertasiga ertalab cho‘qmorni qo‘liga ushlab yo‘lga tushibdi.

Imrak Xunakdan ko‘ra ham pahlavonroq ekan. Uxlasa yetti kecha-yu yetti kunduz ko‘zini ochmas ekan. Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib qonxo‘r va makkor podshoh yurtiga yetib kelibdi. Yo‘l yurib charchaganidan

uyqusi kelib mudray boshlabdi. Biroz nafasimni rostlab olay, debdi-da, o'tloqqa yonboshlab qattiq uyquga ketibdi.

Podshoh xizmatkorlari uni ko'rib qolib o'takalari yorilgudek qo'rqib ketishibdi. Saroya chopib borib, bor gapni oqizmay-tomizmay shohga yetkazishibdi:

— Podshohi olam, o'tloqda bir kishi xurrak otib uqlab yotibdi. Odammi, devmi bilib bo'lmaydi, yonida bahaybat cho'qmori bor. O'ziyam tog'day uzala tushib yotibdi, yoniga yaqinlashib bo'lmaydi.

Imrak nafas olganida podshohning xizmatkorlari otpotlari bilan burnining ichiga kirib ketar, nafas qaytarganida yana qaytib chiqishar ekan. Xizmatkorlar xiyla ishlatmoqchi bo'lishibdi. Aravalarga pichan yuklab uning panasida asta-sekin Imrakning oldiga yaqinlashib kela boshlashibdi. Shunda Imrak chuqurroq nafas olgan ekan, bechora xizmatkorlar ot-arava bilan birga burnining ichiga kirib ketishibdi. Nafas qaytarganida jonlari halqumlariga kelib qaytib chiqishibdi. Podshoh nima qilishini bilmay oxiri Xunakka murojaat qilishga majbur bo'libdi.

— Bu bahaybat maxluqqa Xunak bas kelmasa, boshqa hech kim bas kelmaydi, — debdi u.

Xunakni zindondan ozod qilib Imrakka ro'para qilishibdi. U uqlab yotgan Imrakning ko'kragiga o'tirib olibdi. Ammo oradan sal o'tmay yig'lab yuboribdi.

— Yo tavba, — dermish Xunak, — bosh-ko'zi, yuz tuzilishi xuddi menga o'xshaydi-ku. Bu yerda bir sir bor.

Shu payt Xunakning bir tomchi ko‘z yoshi Imrakning yuziga tomibdi. Imrak cho‘chib uyg‘onibdi, ustida o‘tirgan Xunakni itqitib tashlab cho‘qmorini qo‘liga olibdi.

— Shoshma, Botir, — debdi Xunak, — avval hol-ahvol so‘rashaylik, kimligimizni bilaylik, mushtlashish bo‘lsa qochmas. Qani ayt-chi, kimsan o‘zi, nasl-nasabing kim, bu yerlarda nima qilib yuribsan?

Imrak bor gapni bitta ham qoldirmay gapirib beribdi. So‘zining oxirida:

— Mening Xunak ismli akam bo‘lgan. Akamni topmagunimcha uyga qaytmayman, — debdi.

Bu so‘zlarni eshitib Xunak o‘zida yo‘q xursand bo‘lib ketibdi va:

— Xunak akang men bo‘laman, — debdi.

Pahlavon aka-uka bir-birlarini topganlardan xursand bo‘lib, ko‘zlariga yosh olishibdi. Bo‘lib o‘tgan voqeadan xabar topishgach, borib zolim podshohni o‘ldirishibdi, xizmatkorlarini ham bitta qo‘ymay gumdon qilishibdi. Ikkalalari ota-onalari oldiga qaytishibdi.

Aytishlaricha, ular hozir ham hayot ekan.

YOLG‘IZ BOTIR

Qadim zamonda bir chol bilan kampir yashagan ekan. Boyliklari son-sanoqsiz ekan-u, ammo farzandlari yo‘q ekan. Tirnoqqa zor bo‘lsak, bir kunmas bir kun shuncha mol-dunyo kimga qoladi deb daryo-daryo ko‘z yoshlari to‘kishar, xudodan farzand so‘rashar ekan.

Kunlarning birida chol-kampirga xudo o‘g‘il ato qilibdi. Bola kun sayin, soat sayin ulg‘aya boshlabdi. Unga yolg‘iz o‘g‘il bo‘lganligi uchun «Yolg‘iz botir» deb nom qo‘yishibdi.

Yolg‘iz botir o‘qib tez kunda savodini chiqaribdi. Bir necha kun ichida hamma kitoblarni o‘qib bitirib, bilmagan narsasi qolmabdi. Unga saboq berayotgan mulla shunday debdi:

— Bolam, endi sen sehrgarlik ilmlarini o‘rganishing kerak.

Yolg‘iz botir uyiga kelib mullaning gaplarini otasiga aytibdi. Ota rozi bo‘libdi.

Yolg‘iz botir sehrgarlik ilmlarini o‘rganish maqsadida yo‘lga tushibdi. Yurib-yurib soch-soqoli oppoq nuroniy bir kishini uchratib qolibdi.

— Yo‘l bo‘lsin, bolam, — so‘rabdi chol.

Yolg‘iz botir hamma gapni bir boshdan gapirib beribdi.

— Mayli, seni o‘zim o‘qita qolay, — debdi chol, — ko‘rinishingdan pahlavon yigitga o‘xshaysan.

Chol Yolg‘iz botirni avvaliga musiqa chalishga o‘rgatibdi. Keyin afsungarlikdan saboq beribdi. Yolg‘iz botir tez kunda cholg‘u asboblarining hammasini chaladigan bo‘libdi. Sehrgarlikka kelganda, botir bu ilmni ham qunt bilan o‘rganibdi. Qushga o‘xshab ko‘kka parvoz qiladigan darajaga yetibdi. Shundan keyin u uyiga qaytib kelibdi.

Yolg'iz botir qo'liga kitob olib, qiroat bilan shunday o'qir ekanki, eshitganlar ta'sirlanib yum-yum yig'lab yuborishar ekan. Qurayda biror kuy chalsa ham xuddi shunday bo'lar ekan.

Kunlarning birida qo'shni ovul podshosidan chopar kelib Yolg'iz botirni huzuriga chorlayotganini ma'lum qilibdi. Chol bilan kampir yo'q deya olmay yig'lab-siqtab rozi bo'lishibdi.

Yolg'iz botir qo'shni ovul shohining oldiga kelib, hurmatini joyiga qo'yib salom beribdi. Shoh katta qizini kuyovga uzatayotgan ekan.

— Sen haqingda eshitganman, — debdi shoh, — qani, yaxshi kuylardan chalib mehmonlarni xursand qil-chi.

Yolg'iz botir qurayni shunday chalibdiki, yig'lamagan kishi qolmabdi. Podshohning o'zi ham yig'lab yuboribdi.

Oradan ko'p o'tmay podshoh ikkinchi qizini ham kuyovga uzatibdi. Yolg'iz botir bu gal ham mehmonlarni xursand qilibdi. Navbat kenja qiziga kelibdi. U Yolg'iz botirni sevib qolgan ekan. Uning ishqida gulday ochilib kelayotgan qiz so'lib-sarg'ayib ketibdi.

Pahlavon yigitlar kenja qizga uylanmoqchi bo'lib keng maydonda kurashga tusha boshlabdilar. Ulardan biriga hech kim teng kela olmabdi. Yolg'iz botir shohning oldiga kelib:

— Ijozat bersangiz, shu yigit bilan bir olishib ko'rsam, — debdi.

— Yo'q, bolam, sen hali yoshsan, — debdi shoh. — Qara, duch kelgan yigitning kuragini yerga ishqayapti.

Yolg‘iz botir so‘zida qattiq turib olibdi:

— Botirning qo‘lida o‘lish yigit kishi uchun sharaf, shohim, ijozat eting.

Shoh rozi bo‘libdi.

Yolg‘iz botir pahlavon yigit bilan kurasha boshlabdi. Payt poylab turib raqibini osmonga otib yuboribdi. Qaytib tushayotganida orqasiga bir tepgan ekan, bechora til tortmay o‘libdi.

Podshoh to‘y-tomosha qilib kenja qizini Yolg‘iz botirga beribdi. Bayroqlar ko‘tarilib, el-yurtda xursand-chilik boshlanibdi.

Kunlardan bir kuni qo‘shni podshohdan maktub kelib qolibdi. Unda: «Katta qizingni menga jo‘nat, bo‘lmasa senga urush e’lon qilaman», deb yozilgan ekan. Shoh javob qaytaribdi: «Katta qizim turmushga chiqib ketgan, uni senga jo‘nata olmayman. Urushmoqchi bo‘lsang, men tayyorman».

Shoh askarlarini to‘plab qo‘shni shoh bilan urushgani yo‘lga chiqibdi.

— Siz urushmoqchi bo‘lgan podshoh odamlari g‘oyat hiylagar, — debdi Yolg‘iz botir qaynotasiga. — Qushga aylanib uchib kelishadi-da hammamizni qirib tashlashadi. Sizlar asta-sekin boraveringlar. Men uchib borib odamlari qancha ekanligini bilib qaytaman.

Yolg‘iz botir qushga aylanib bir zumda dushman oldiga uchib boribdi. Qarasa lashkarlar uncha ko‘p emas emish. Hammasini qirib tashlabdi-da, orqasiga qaytibdi.

— Uyga qaytaylik, — debdi u podshohga, — dushmaningizni yer bilan yakson qildim.

Hammalari uyg'a qaytishibdi.

Ertasi kuni boshqa podshohdan xat kelib qolibdi: «O'rtancha qizingni menga in'om et, agar rozi bo'lmasang o'zingdan ko'r — bitta qo'ymay qirib tashlayman».

Shoh javob qaytaribdi: «Qizim allaqachon tur-mushga chiqib ketgan. Urushsak urushamiz-da!»

Lashkarni ergashtirib, qurol-aslahalarni olib yo'lga tushishibdi. Yolg'iz botir debdi:

— Dushmaningiz g'oyatda makkor. Afsun o'qib hammayoqni tumanga bostirib yuborishadi. Biz hech nimani ko'ra olmaymiz. Ular bo'lsa bizni bitta qo'ymay qirib tashlashadi.

— Xo'sh, nima qilish kerak? — so'rabdi podshoh.

— Agar ijozat bersangiz borib qo'shini qanchaligini bilib qaytaman.

Podshoh rozi bo'libdi. Yolg'iz botir qushga aylanib uchib boribdi-da, bir zumda qaytib kelibdi.

— Shohim, — debdi u qaynotasiga, — dushman lashkarlari son-sanoqsiz, yengish oson emas.

Sizlar shu yerda turib turinglar. Men o'zim kuchimni bir sinab ko'rmoqchiman.

Yolg'iz botir dushman lashkarlari ustiga tashlanib birpasda hammasini tig'dan o'tkazibdi. Qochgani qochib qolibdi, qochmagani jahannamga ravona bo'libdi. Qaynotasining oldiga kelib shunday debdi:

— Uyga qaytamiz, dushman adoyi tamom bo'l-di.

Uyga qaytganlaridan bir necha kun keyin yana bir podshohdan xat kelibdi. O'qib ko'rishsa unda shu so'zlar yozib qo'yilgan ekan:

«Kenja qizingni menga bersang berding, bo'lmasa bitta qo'ymay qirib tashlayman».

Shoh javob qaytaribdi: «Hamma qizlarim tur-mushga chiqib, uy-joyli bo'lib ketishgan. Mayli, urusha qolaylik».

Yolg'iz botir qaynotasiga qarab shunday debdi:

— Ehtiyot bo'lganimiz ma'qul. Bu podshohning odamlari singari hiylagarlar hech qayerda yo'q. Ular suvning ostidan asta suzib kelishadi-da, hammamizni bitta-bitta gumdon qilishadi.

— Xo'sh, unda nima qilishimiz kerak, — so'rabdi podshoh.

— Ijozat bersangiz bitta o'zim boraman, — javob beribdi Yolg'iz botir.

Podshoh rozi bo'libdi. Kuyov bola baliqqa aylanib dushman qo'shinlarining oldiga suzib boribdi. Hammagini bitta qo'ymay qirib tashlabdi. Keyin qanday kelgan bo'lsa shunday orqasiga qaytibdi.

— Xo'sh, kuyov bola, dushmanni qirib tashla-dingmi? — so'rabdi shoh.

— Xuddi shunday, makkorlarning bittasini ham omon qoldirmadim, — javob qaytaribdi Yolg'iz botir.

Podshoh xursand bo'lib kuyovini yaxshilab siylab-di, bundan buyon Yolg'iz botir shohlar sulolasiga mansub deb farmon beribdi.

Vaqt-soati yetib Yolg‘iz botir o‘g‘illik bo‘libdi. O‘g‘li o‘zidan ham pahlavon emish. Kun emas, soat sayin ulg‘ayib birpasda navqiron yigit bo‘libdi.

Yolg‘iz botir shohlik libosini kiyib, xotini va o‘g‘lini yoniga olib, bir tuman lashkari bilan uyiga qaytmoqchi bo‘lib yo‘lga tushibdi.

Yo‘lda bir ovulga duch kelishibdi. Ovul podshosi ziyofat berayotgan ekan. Durbindan qarab Yolg‘iz botir va uning lashkarlarini ko‘rib qolibdi. Mehmon podshoh-larga dag‘-dag‘ titrab shunday debdi:

— Qaranglar, biz bilan urushgani kelishyapti. Himoyaga tayyorlaninglar.

Shohlar qilichlarini yalang‘ochlab jangga otlanishibdi. «Borib bil-chi, maqsadi nima ekan», deb yolg‘iz botirning oldiga ikkita elchi yuborishibdi.

Yolg‘iz botir askarlariga: «Shaxdam-shaxdam qadam tashlanglar, oyoqlaringizni yerga gursillatib uringlar», deb buyruq qilibdi.

Elchilar Yolg‘iz botirning oldiga kelishibdi.

— Men shohman, hech kim bilan urushmoqchi emasman. Uyimga ketyapman, — debdi Yolg‘iz botir va elchilar bilan birga shohlarning oldiga kelibdi. Shu paytda shahzoda yigitlari kurashga tushishni mashq qilishayotgan ekan. Yolg‘iz botirning o‘g‘li ularni ko‘rib otasidan: «Men ham botir bolalar bilan kurashga tushsam maylimi», deb ijozat so‘rabdi. Otasi rozi bo‘libdi. Shunda u hammadan g‘olib chiqqan botir bilan kurashga tushibdi va bir zarb bilan kuyov bolani osmonga otib yuboribdi.

Shoh xursand bo‘lib Yolg‘iz botirning o‘g‘lini o‘ziga kuyov qilib olibdi.

Yolg‘iz botir uyiga qaytibdi. Ota-onasi farzand dog‘ida yig‘layverib ko‘zлari ojiz bo‘lib qolgan ekan. Qirq kundan beri tuz ham totmay och-nahor yashashayotgan ekan. O‘g‘illari, kelin va nabiralarini ko‘rib hushlari og‘ayozibdi. Bir-birlarini bag‘irlariga bosib ko‘z yoshlari ham to‘kishibdi.

Yolg‘iz botir ovulga shoh bo‘libdi. Aytishlaricha, hozir ham o‘sha yerda botirlik qilayotgan emish.

UMRZOQ BOTIR

Qadim zamonda chol bilan kampir yashagan ekan. Ular o‘g‘il ko‘rishibdi. Ismini Umrzoq qo‘yishibdi. Bola ha-hu demay voyaga yetibdi. Ota-onasi kambag‘al bo‘lganidan bir kishining xizmatini qilib ota-onasiga yordam bera boshlabdi. Vaqt-soati yetib Umrzoq kuch-quvvatga to‘lib, pahlavonlikda tenggi yo‘q botir bo‘libdi.

Kunlarning birida shoh saroyida bayram bo‘libdi. Umrzoq bayramga borgan ekan, shohning qizi uni ko‘rib sevib qolibdi. Otasiga: «Shu yigitga turmushga chiqmoqchiman, qarorim qat’iy», debdi.

Shoh rozi bo‘lib, huzuriga Umrzoqni chaqirtiribdi.

— Qizim, senga ko‘ngil qo‘yibdi, — debdi shoh. — Bordi-yu bitta shartimni bajarsang seni kuyov qilib olaman.

Umrzoq xo‘p bo‘ladi, debdi.

— Saroyda bitta botir bor, — debdi shoh. — Uni hech kim yenga olmagan. Sen shu botir bilan olishasan, g'olib chiqib uni o'ldirsang, qizim seniki.

Shoh bilan botir o'rtasida gap qochib, anchadan beri bir-birlaridan qutulishni bilolmay yurishgan ekan. Umrzoq buni fahmlabdi-da shartni qabul qilibdi.

Shoh saroy botirini chaqirtiribdi. Botir kelgach, Umrzoq ikkalasi maydonga chiqib kurasha boshlashibdi.

— Yaxshisi kelishib qo'ya qolaylik, — debdi botir.

— Haqiqiy botir hech qachon kelishmaydi, yo yengadi, yo yengiladi, — debdi Umrzoq va bor kuchini to'plab botirni osmonga otib yuboribdi. Qaytib tushayotganida bir hamla bilan kallasini cho'rt uzib tashlabdi. Shoh xursand bo'lib bayroqlarni ko'tarishga, musiqa chalib g'olibni ulug'lashga farmon beribdi. To'y-tomosha qilib qizini Umrzoq botirga nikohlab beribdi.

Kelin-kuyov rohat-farog'atda yashay boshlabdilar. Vaqt-soati kelib shoh kuyovini shahzoda deb e'lon qilibdi va ota-onasi oldiga qaytishi uchun ijozat beribdi. Er-xotin yo'lda o'g'il ko'rishibdi. Bola ko'z o'ngilarida o'sib, ulg'aya boshlabdi. Bir mahal oldilaridan daryo chiqib qolibdi. Yog'ochlardan barja yasab narigi qirg'oqqa suzib o'ta boshlabdilar. Daryoning o'rtasiga borishganida barja nimagadir ilinganday bo'lib, to'xtab qolibdi. Qarashsa, ajdarho emish.

— Menga o'g'lingni bersang qirg'oqqa omon-eson yetib olasan, — debdi ajdarho. — Yo'q desang, hammalarining cho'ktirib yuboraman.

— Mayli, — debdi Umrzoq, — avval qirg‘oqqa yetib olaylik, keyin aytganingga rozi bo‘lamан.

Ajdarho barjani dast ko‘tarib qirg‘oqqa olib boribdi. Bola otasiga qarab shunday debdi:

— Meni ajdarhoga berma, uni o‘zim bir yoqli qilaman.

— Mayli o‘g‘lim, — debdi Umrzoq.

Bola ajdarho bilan olisha boshlabdi. Payt poylab turib shartta ko‘tarib yerga zarb bilan urgan ekan, tuproq qa‘riga kirib ketibdi. Ajdarhoni o‘ldirib yana yo‘lga tushishibdi.

Umrzoqning ota-onasi qarib qolishgan ekan. O‘g‘illari, kelin va nabiralarini ko‘rib xursand bo‘lganlaridan yig‘lab yuborishibdi. Shod-u xurramlik bilan quyuq ziyoфat boshlanibdi. Umrzoq ovuldoshlariga o‘zining shahzodalik unvonini ma’лum qilibdi. Ovuldoshlar uni o‘zlariga shoh qilib tayinabdilar.

Qo‘shni bir ovulning shohi qizini turmushga bera-yotib hammani to‘yga taklif qilibdi. Mehmonlar orasida Umrzoq ham bor ekan. To‘yga tumonat odam yig‘ilibdi. To‘y avji qiziganida o‘rtaga botirlar chiqishibdi. Umrzoqning botiri mezbon shohning botiri bilan olishib yengilib qolibdi. Umrzoq botirning jahli chiqib maydonga o‘zi tushibdi. Ammo u ham ko‘p o‘tmay taslim bo‘libdi.

Umrzoqning o‘g‘li hammasini kuzatib turgan ekan, otasining oldiga kelib:

— Otajon, ijozat bersangiz, o‘zim tushsam, — debdi.

— Bolam, men yengolmagan botirni sen eplay olarmiding, hali yoshsan-ku, — debdi otasi.

— Ijozat bera qoling, — so‘zida turib olibdi o‘g‘li.

Umrzoq rozi bo'libdi. O'g'li hali hech kim yenga olmagan botirning oldiga kelib belidan mahkam ushlabdi.

— Hoy zumrasha, — debdi botir bepisand, — shu gavdang bilan meni yengmoqchimisan?

— Gap sotgandan ko'ra durustroq olishsang-chi, — debdi Umrzoqning o'g'li, — yiqilsam sizdek pahlavondan yiqilaman.

— Ixtiyorin, — debdi botir, — hozir belingni bir qashlab qo'yaman.

Ikki botir jon-jahdlari bilan olisha ketibdilar.

Umrzoq botirning o'g'li shohning botirini qulog'i-dan ushlab osmonga otib yuboribdi. Yerga qaytib tushganida beliga chunonam mushtabdiki, bechora kulga aylanib ketibdi. Bir-ikki odam ishtonini ho'l ham qilib qo'yibdi. Shoh Umrzoqqa qarab shunday debdi:

— O'g'lingni o'zimga kuyov qilib olaman.

Umrzoq rozi bo'libdi. To'y-tomosha boshlanib, olti kecha-yu olti kunduz davom etibdi. Botirlar yana maydonga chiqishibdi. Umrzoqning o'g'lini hech kim yenga olmabdi.

Shohning o'g'li bor ekan. U otasining oldiga kelib «Otajon, ijozat bersangiz, kuyovimiz bilan bir bellashsam», debdi.

Shoh rozi bo'libdi. Shohning o'g'li pochchasining oldiga kelibdi va unga:

— Qani kuchimizni bir sinab ko'raylik-chi, — debdi.

— Ikkalamiz kurashga tushsak uyat bo'ladi, qaynijon, — debdi Umrzoqning o'g'li, — axir biz qarindoshlarmiz-ku.

— Bir-birimizni ko‘tarib yerga qo‘ysak bo‘ladi, ortiqcha olishib o‘tirmaymiz, — debdi shohning o‘g‘li.

— Unday bo‘lsa, mayli, — debdi kuyov bola. Keyin qaynisini asta ko‘tarib boshi uzra bir-ikki aylantiribdi-da yerga qo‘yibdi.

— Sen haqiqiy botir ekansan, — debdi shohning o‘g‘li.

Vaqt-soati yetib Umrzoqning o‘g‘li ham o‘g‘il ko‘ribdi. Bola pahlavon kelbat bo‘lib voyaga yetibdi. Qad-qomati shu qadar chiroylı ekanki, asti qo‘ya-verasiz. Shoh nabirasiga shahzodalik unvonini beribdi.

Umrzoqning o‘g‘li qaynotasining oldiga kelib shunday debdi:

— Otajon, endi bizga ijozat bering. Ovulimizga qaytaylik.

Shoh rozi bo‘libdi. Hammalari xayr-xo‘splashib yo‘lga chiqishibdi.

Yurib-yurib bir tepalik oldiga kelishibdi. Qarashsa, otliq askarlar turganmish. Yaqinroq kelib ko‘rishsa dev-parilar ekan. Ular Umrzoqning nabirasiga:

— Biz bilan kurashga tushmaysam? — deyishibdi.

Umrzoqning o‘g‘li javob beribdi:

— O‘g‘lim hali yosh, yaxshisi sizlar bilan o‘zim kurasha qolay.

Devlar rozi bo‘lishibdi. Kurash boshlanibdi. Umrzoqning o‘g‘li uch-to‘rtta devni yengibdi. Shunda desangiz devlarning botiri tirnoqlarini yerga botirib o‘rtaga tushibdi. Dev shoh shunday debdi:

— Mana shu botirni yenggan yigitni o‘zimga kuyov qilib olaman.

Umrzoqning nabirasi otasining yoniga kelib asta so‘rabdi:

— Otajon, ijozat bering, kuchimni bir sinab ko‘ray.

Ota rozi bo‘libdi.

Kurash boshlanibdi. Uch kecha-yu uch kunduz deganda Umrzoqning nabirasi bor kuchini to‘plab devni osmonga otib yuboribdi. Botir dev qaytib tushib yerning qa’riga kirib ketibdi-yu shu zahotiyiq til tortmay o‘libdi. Dev shoh Umrzoqning nabirasiga qizini beribdi.

Umrzoqning o‘g‘li to‘ydan keyin uyiga qaytibdi. O‘g‘li bo‘lsa devlarga kuyov bo‘lib o‘sha yerda qolibdi.

Vaqt-soati yetib devlarning shohi olamdan o‘tibdi. Bitta ham o‘g‘li yo‘q ekan, shohlikni qiziga vasiyat qolibdi. Qizi bo‘lsa otasidan qolgan mol-mulkning hammasini eriga topshiribdi. Shunday qilib, Umrzoqning nabirasi ham shohlik unvoniga sazovor bo‘libdi.

Oradan oylar, yillar o‘tibdi. Devning qizi bir kuni eri oriqlashib, rang-ro‘yi sarg‘ayib ketganini sezib qolibdi. Sababini so‘ragan ekan, eri shunday debdi:

— Ota-onamni ko‘rmaganimga ham ancha vaqt bo‘ldi. Ularni sog‘inib shu ahvolga tushdim. Agar rozi bo‘lsang, borib ko‘rib kelaylik.

Xotini rozi bo‘libdi. O‘sha kuniyoq yo‘lga tushishibdi. Birpasda yetib kelishibdi. Ota, bola va nabira — uchchalalari o‘z yurtlarida shohlik qilishib uzoq umr ko‘rishibdi.

MUNDARIJA

O'rol botir	3
Alp botir	18
Alpomish botir	22
Xunak bilan Imrak	34
Yolg'iz botir	38
Umrzoq botir	45

SHILOH HAMMOZA

“*Избраные драмы Алишера Навои*
Сборник пьес Алишера
Навои, избранные Академии наук
Узбекской ССР, директором Академии
наук Узбекской ССР, профессором
Академии наук Узбекской ССР профессором

Год издания: 1973

“*Избраные драмы Алишера Навои*” — это сборник пьес Алишера Навои, избранных Академией наук Узбекской ССР, директором Академии наук Узбекской ССР, профессором Академии наук Узбекской ССР профессором

“*Избраные драмы Алишера Навои*” — это сборник пьес Алишера Навои, избранных Академией наук Узбекской ССР, директором Академии наук Узбекской ССР, профессором Академии наук Узбекской ССР профессором

“*Избраные драмы Алишера Навои*” — это сборник пьес Алишера Навои, избранных Академией наук Узбекской ССР, директором Академии наук Узбекской ССР, профессором Академии наук Узбекской ССР профессором

Shartnoming nishbuasi masajidning yonligiga kuchli qo'shi
qo'shi etiladi.

Shartnoming nishbuasi masajidning yonligiga kuchli qo'shi
qo'shi etiladi.

- Ushbu etibor, o'szal behakimlikda birlashtirishga haqiqiy
O'tib rozi bo'linadi.

Kuchli boshatuvchi... Men, kuchli qo'shi etiladi...
degashadi amtoqini rohima boz kuchli uchun qo'shi etiladi
egarima shayxishan... Botir dan qo'shi etiladi
qo'shi etiladi... Kuchli... qo'shi etiladi...
O'tib rozi bo'linadi... qo'shi etiladi... qo'shi etiladi... qo'shi etiladi...

“Qur'an-qur'ong’ shahar to‘g‘ishlari...”... qo'shi etiladi...
O'szal etibor... qo'shi etiladi... qo'shi etiladi... qo'shi etiladi...

Adabiy-badiiy nashr

ALPOMISH BOTIR

Muharrir *Mavjuda Nasriddinova*

Musavvir *Yulay Gabzalilov*

Badiiy muharrir *Anatoliy Bobrov*

Texnik muharrir *Tatyana Xaritonova*

Musahihil *Dono To'ychiyeva*


Kompyuterda sahilalovchi *Zilola Mannopova*

IB N 4553

Bosishga 04.09.09 y.da ruxsat etildi. Bichimi 60x84^{1/16}, Tayms garniturasi.
Ofset bosma. 3,02 shartli bosma toboq. 4,0 nashr tobog'i. Adadi 5000 nusxa.
271 raqamli buyurtma. 82—2009 raqamli shartnoma. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100128. Toshkent, Shayxontohur ko'chasi, 86.

Bizning internet manzilimiz: www.ipptdgulom.uz



ISBN 978-9943-03-088-6



9 789943 030886